

PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2022



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

Maxsus son

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2022

Nargiza RAFIYEVA. O'zbek kitobot va miniatura san'ati	126
R.N.RAXIMOV, M.K.AKRAMOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining vokal-xor malakalarini tarkib toptirish	129
Baxrom MADRIMOV. O'quvchilarni darsdan tashqari tadbirlar jarayonida axloqiy-estetik tarbiyalash	132
Sanoqul DO'STOV. Musiqani tinglab uni idrok etishning maqsadi va tarbiyaviy ahamiyati.....	135
Davron RO'ZIYEV. Konsert namoyishiga tayyorgarlik faoliyati	139
Baxtiyor MUSTAFOYEV. Umumiy o'rta ta'lim tizimi islohotlarida musiqa madaniyati	143
To'xtasin RAJABOV. Musiqa madaniyati darslarida xalq qo'shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati	146
Shoira NOROVA. Yosh avlodni musiqa san'ati orqali tarbiyalash yo'llari	149
Ilhom QO'SHAYEV. An'anaviy musiqiy merosni o'rganishni metodik takomillashtirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni	152
Ibrohim KAYUMOV. San'atning turlari va ularning tarbiyaviy ahamiyati	154
Sadritdin GULOV. O'zbekiston maktablarida musiqa cholg'ulariga yo'naltirishning zamonaviy ilg'or innovatsiyalari.....	157
Halim HASANOV. Vatanga sadoqat hissini shakllantirishda fanlararo aloqadorlik (musiqa fani misolida)	159
Shavkatjon KAMOLOV, Husniddin HIKMATOV. Talabalarda mustaqil ta'limni tashkil etish.....	161
Сайфулла АБДУЛЛАЕВ. Краткосрочные рисунки как средство формирования художественного воображения студентов в процессе рисования по памяти и представлению	163
To'lqinjon Muxamedov. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy madaniyatni tanishtirish orqali fuqarolik shaxsini shakllantirish	167
O'g'iloy RAMAZONOVA, Ferangiz Odilova. O'n ikki maqom tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari ..	169
Malohat RAXMATOVA, Gulbahor ISTAMOVA. "Shashmaqom" nasr (ashula bo'limining ikkinchi guruh sho'bxalarini) o'rgatish yo'llari.....	171
Olimxo'ja KARIMOV, Rahim XODJAYEV. Musiqa to'garaklarida o'quvchilarni skripka cholg'u sozi bilan tanishtirish.....	173
Ma'rifat UMUROVA. Maktabgacha ta'lim muassasasida o'yin bola tarbiyasining muhim vositasi.....	176
Shohruh SHODIYEV. Qashqar rubobida xalq kuylarini notalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	181
Azamat Rajabov. Markaziy Osiyoda musiqa ilmiga asos solgan olim va mutafakkirlar ishlarining tahlili ..	186
Рустам АТАМУРАДОВ. Формирование умений и навыков по школьному репертуару учителей музыки в общеобразовательной школе	188
Sherzod SHAMSIYEV, Dilbar MO'SINOVA. Xor uchun yozilgan musiqa asarini tahlil qilish yo'llari.....	191
Сухроб АБДУЛЛАЕВ. Формы организации научно – исследовательской и творческой деятельности студентов направления образования "Изобразительное искусство и инженерная графика".....	193
Olimxo'ja KARIMOV, Gulmira QUTLIYEVA. O'quvchilarda vokal-xor malakalarini shakllantirish	195
Olimxo'ja KARIMOV, Sitorabonu SHARIPOVA. Qo'shiq va kuylar orqali komil inson shaxsini tarbiyalashning nazariy asoslari.....	198
Qobil QORIYEV. O'zbek musiqa san'atining qadimiy ildizlari tarixidan	200
Abror AZIMOV. Zardushtiy va buddaviylar davri ommaviy musiqa va badiiy san'at tarixi va turlari	202
Said BOLTAZODA. Avesto davrining xorazm va sug'diyona musiqa maktablari madaniyatida ijrochilik uslublari.....	204
Davron RO'ZIYEV, Jamshid NIYOZOV. Maqomga ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarini shashmaqomning nasr bo'limi vositasida axloqiy-estetik tarbiyalash	206
Sanoqul DO'STOV, Zilola RUZIYEVA. O'quvchilarning musiqiy tafakkurini shakllantirishda milliy dutor cholg'usining o'rni va tarbiyaviy ahamiyati	208
Mehriniso Begmurodova. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa terapiya mashqlarining ahamiyati ...	210
Zafarbek YAQUBOV. Bo'lajak musiqa o'qituvchisi ma'naviyatini rivojlantirishda Xorazm xalq dostonlarining o'rni	212
Umidbek BOLTAYEV. Milliy musiqiy meros-o'quvchilar estetik tarbiya vositasi	214
Uchqun BOLIYEV. Ma'naviy axloqiy tarbiyaga kompleks yondashish	217
Maqsuda AXMEDOVA. Musiqiy tasavvurlarni shakllantirishda pedagogika va psixologiya fanining muhim vazifalari	219
Adilshoda TO'YMURODOV. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishda o'quvchining ijodkorligi	222
Hafiza HAMIDOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini folklor qo'shiqlari vositasida tarbiyalashda alla qo'shig'ining ahamiyati.....	225
Mirshod XODJIYEV. Buxorcha va mavrigi turkumi haqida.....	228
Firangiz SHUKUROVA. Buxoro folklor qo'shiqlarining maktab darsliklaridagi o'rni	230
Shaxnoza YAXYOYEVA. Buxoro shashmaqomining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati	233

Ibrohim KAYUMOV

Buxoro davlat universiteti
musiqa kafedrası katta o'qituvchisi

SAN'ATNING TURLARI VA ULARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

San'at asarida shaxsning o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'ladi. Amaliy san'at turlariga kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik, zardo'zlik, libos yaratish kabi sohalar kirsa, badiiy san'at turlariga rassomlik, musiqa, haykaltaroshlik, kino, teatr, badiiy adabiyot kabilar mansub. Shuningdek, ifodali va tasviriy san'at turlari farqlanadi. Jahon san'ati durdonalari - buyuk arxitektura inshootlari, Vergiliy, Dante, Milton, Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelanjelo tasvirlari, I.S.Bax, I.Gaydn, V.A.Motsart musiqalari, Sharqda esa F.Attor, J.Rumi, A.Jomiy, A.Navoiy asarlari diniy manbalardan ilhom olib yaralgan edi.

Kalit so'zlar: san'at, ijtimoiy ong, arxitektura inshootlari, amaliy san'at, tarix.

Произведение искусства – это выражение уникального таланта человека. Прикладное искусство включает керамику, живопись, вышивку, вышивку и одежду, а декоративно-прикладное искусство включает живопись, музыку, скульптуру, кино, театр и литературу. Существуют также различные виды изобразительного и изобразительного искусства. Шедевры мирового искусства - великие архитектурные сооружения, образы Вергилия, Данте, Мильтона, Леонардо да Винчи, Рафаэля, Микеланджело, И.С.Баха, И.Гайдна, музыки В.А.Моцарта, а на Востоке Ф.Аттора, Дж.Руми, А.Джами, Творчество А. Навои навеяно религиозными источниками.

Ключевые слова: искусство, общественное сознание, архитектурные сооружения, прикладное искусство, история.

A work of art is an expression of a person's unique talent. Applied arts include ceramics, painting, embroidery, embroidery, and clothing, while arts and crafts include painting, music, sculpture, film, theater, and literature. There are also various types of fine and fine arts. Masterpieces of world art - great architectural structures, images of Virgil, Dante, Milton, Leonardo da Vinci, Raphael, Michelangelo, J.S. Bach, J. Haydn, music by W.A. Mozart, and in the East F. Attor, J. Rumi, A.Jami, Creativity A. Navoi inspired by religious sources.

Key words: art, public consciousness, architectural structures, applied art, history.

Kirish. San'at - ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli. San'at inson mehnati, aql-idroki, shuuri bilan yaratilgan ijod mahsulidir. San'at asarida shaxsning o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'ladi. San'at insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi, dunyoni ma'naviy anglashning maxsus turidir.

Asosiy qism. "San'at" keng ma'noda, badiiy qadriyatlar, ularni yaratish (badiiy ijod qilish) va iste'mol (badiiy idrok etish) jarayonlarini qamrab oladi. San'at hozirgi davrga qadar insoniyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. "San'at" so'zi jonli tilimizda nechog'li keng ma'noda qo'llanmasin, tabiiyki, bizni uning emas, balki istilohiy ma'nosi qiziqtiradi. Istilohiy ma'noda "San'at" deganda insonning go'zallik qonuniyatlari asosida borliqni badiiy o'zlashtirish (va o'zgartirish)ga qaratilgan yaratuvchilik faoliyati hamda uning natijasi o'laroq vujudga kelgan jami narsalar tushuniladi. Ya'ni, go'zallik qonunlari asosida mahorat va did bilan yaratilgan narsalarning hammasi san'atga aloqadordir. San'atning quyidagi ikki turi farqlanadi: amaliy va badiiy (nafis).

Amaliy san'at turlariga kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik, zardo'zlik, libos yaratish kabi sohalar kirsa, badiiy san'at turlariga rassomlik, musiqa, haykaltaroshlik, kino, teatr, badiiy adabiyot kabilar mansub. Shuningdek, ifodali va tasviriy san'at turlari farqlanadi. Ba'zi san'at turlari tasvirlasa, boshqalari ifodalaydi. Aytaylik, musiqa - ifoda san'at kompozitor ohanglar orqali kechinmalarni ifodalaydi va shu ohanglar ruhiyatimizda muayyan bir kayfiyat hosil qiladi. Rassomlik bilan haykaltaroshlik tasviriy san'at turlari bo'lib, unda biror manzara, holat musavvir qalbini junbishga keltirib, qalbida muayyan kechinmalarni qo'zg'atadi va musavvir o'sha manzarani rang-tasvirga muhrlaydi. Shu tariqa san'at asarlari ruhiyatimizga oziq beradi. San'atning turli ko'rinishlari voqelikni, undagi hodisa, narsa va holatlarni o'ziga xos usullar yordamida aks ettiradi. Masalan, musiqada tovushlar, ularning o'zaro bog'lanishi, uyg'unligi orqali; badiiy adabiyot so'z, obrazlar orqali; tasviriy san'atda bo'yoqlar yordamida muayyan hissiy obraz gavdalantiriladi; teatrdá pesa qahramonlarining siymosi aktyorlar orqali namoyon bo'ladi.

Mavjud san'at turlari orasida badiiy adabiyot yetakchi o'rin tutadi. Chunki badiiy adabiyot universal bilish va ifoda vositasi bo'lmish so'z bilan ish ko'radi. San'at ijtimoiy hayotning mustaqil bir sohasi bo'lib, jamiyatning barcha tomonlariga ta'sir o'tkazadi, ijtimoiy ongning hamma shakllari bilan aloqaga kirishadi.

San'at voqelikni badiiy vositalar orqali yanada to'laqonli, jozibali anglashga yordam beradi. San'at uchun inson bosh mavzu bo'lib xizmat qiladi. San'atda inson hamma vaqt ham bevosita ifodalanmaydi. San'at narsalardan, tabiat hodisalaridan inson uchun ahamiyatli bo'lgan ma'noni izlaydi, inson qalbini poklaydi, uning har tomonlama kamol topishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. San'at qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni, shuningdek, kishilar ijtimoiy rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga kela boshlagan.

Ibtidoiy san'atning dastlabki ildizlari so'nggi paleolit davriga, taxminan miloddan avvalgi 40-20 ming yillikka borib taqaladi.

San'atga doir ma'lumotlar dastlab Yunonistonda qadimdan o'rganila boshlagani ma'lum. Arastu, Aflotun kabi o'sha davrning yirik faylasuflari Yunonistonda san'atning tarixi bilan ham shug'ullangani to'g'risida ma'lumotlar saqlangan. Qadimgi Rimda yunon san'atiga katta e'tibor bilan qaralgan. Miloddan dastlabki asrlarda Markaziy Osiyo mamlakatlarida me'morchilik va san'atga oid risolalar yaratilgan. O'rta asrlarda Yevropada san'at ilohiyotning (teologiya) bir qismi bo'lib qoladi. O'rta asr san'atshunoslari san'atni narigi dunyoning bu dunyodagi moddiy obrazi deb baholagan. Uyg'onish davri san'at rivojida muhim davr bo'lib tarixga kirdi.

Muhokamalar va natijalar. XIV-XVI asrlarda insonparvarlik va realizm g'oyalari bilan bir qatorda san'atni cherkov ta'siridan ajratishga intilish kuchaydi va uni ilmiy tavsiflash yo'lida muhim qadam qo'yildi. Bu davrda san'at uning nazariyasi va tarixi bo'yicha qimmatli asarlar vujudga keldi. Leonardo da Vinchining rassomlikning ilmiy asoslari va imkoniyatlari, tasviriy san'atda inson ma'naviy hayotining aks ettirilishi kabi muhim ahamiyatga ega bo'lgan fikrlari, XVI asrda Germaniyada A.Dyurenning proporsiyalar haqida ilmiy fikrlari. Venetsiyada P.Aretinoning borliqni to'g'ri aks ettirish bo'yicha rassomlar oldiga qo'ygan talablari san'atga muhim hissa bo'lib qo'shildi.

XVII arsdan boshlab Germaniya G.Y.Lessing realizm nazariyotchisi sifatida "tasviriy San'at" atamasini fanga kirdi.

XIX asrda san'atning ilmiy-tarixiy asoslari mustahkamlandi. San'at fan sifatida shakllanib, takomiliga yetdi, o'z uslubiyotiga ega bo'ldi. Fransiyada Stendal G.Kurbe, Germaniyada I.Gyote va G.Geynning asarlari san'atshunoslik fanida katta rol o'ynadi. Aynan shu davrda arxeologik tadqiqotlar ko'lami kengaydi, badiiy muzeylar ochildi. Ayniqsa, buyuk fransuz inqilobi g'oyalari, I.Kant, A.Shopengauer, G.F.Gegel estetik qarashlari, Rossiyada esa V.V.Stasov, I.N.Kramskoy, I.Y.Repin va boshqalarning san'atning hayotiy bo'lishi va ijod erkinligi xususidagi qimmatli fikrlari, V.G.Belinskiy, A.I.Gersin g'oyalari san'atning realistik yo'nalishi rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, bu davrda san'at din bilan ham mustahkam aloqada rivojlandi. Jahon san'ati durdonalari-buyuk arxitektura inshootlari, Vergiliy, Dante, Milton, Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelanjelo tasvirlari, I.S.Bax, I.Gaydn, V.A.Motsart musiqalari, Sharqda esa F.Attor, J.Rumiy, A.Jomiy, A.Navoiy asarlari diniy manbalardan ilhom olib yaralgan edi.

San'at odamlarning estetik talablarini qondirish bilan birga, o'z taraqqiyotining turli davrlarida jamiyat a'zolarini ma'lum ruhda tarbiyalash, ularni aqliy va hissiy jihatdan rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qilib kelgan, ularning turli maqsad, his-tuyg'u, manfaat, ideallarini ifoda etgan. San'at ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan o'zining predmeti, mazmuni, voqelikni ifoda etish usuli va uslubi, ijtimoiy hayotda tutgan o'rni hamda vazifalari jihatidan farq qiladi. San'at insonning moddiy va ma'naviy faoliyatidagi bilimi, tajribasi, mahorati va qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsulidir. Estetik tafakkur tarixida san'at narsa va hodisalarni qanday bo'lsa shundayligicha aks ettirish va hayotni go'zallik qonunlari asosida badiiy ifodalash g'oyalari sari yuksalib bordi. Tabiat, jamiyat va insonning ijtimoiy, ma'naviy, milliy dunyosi san'at predmeti hisoblanadi.

Voqelik qaysi shaklda badiiy ifoda etilmasin, ijodkor unga ma'lum ijtimoiy-estetik ideal nazardan munosabat bildiradi va o'z estetik bahosini beradi. San'at inson uchun estetik zavq-shavq manbai; inson hayotiga go'zallik baxsh etadi; odamlarda voqelikka nisbatan hissiy munosabatni shakllantiradi; hayotni kuzatish, o'rganish va bilish vositasi; hayotni inson orzu qilgan tomonga o'zgartirishda yordam beradi; tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi; hayotdagi go'zallikdan ilhomlanishga, xunuklikdan nafratlanishga chorlaydi; odamlar orasidagi ma'naviy ko'pri, muloqot vositasi; odamlarning badiiy-estetik didini tarbiyalaydi, ularda ma'lum dunyoqarashni shakllantiradi. San'at jamiyat ma'naviy hayotining boshqa hodisalari (fan, mafkura, axloq) ma'lum darajada bog'liqdir.

Xulosa. San'atning maqsadi dunyoni badiiy o'zlashtirish, odamga lazzat baxsh eta oladigan, uni ma'naviy boyita oladigan asarlar yaratish yo'li bilan kishilarning estetik ehtiyojlarini qondirishdan iborat. San'at asarlarining diqqat markazida insonlar, ularning ijtimoiy aloqasi va o'zaro munosabatlari, muayyan tarixiy sharoitlardagi hayoti, faoliyati turadi. Shuning uchun ham san'at asarlari beradigan bilim muayyan mamlakat, millat yoki ma'lum bir tarixiy davr va shaxslar haqidagi ilmiy asarlardan olingan ma'lumotlardan

farq qiladi. San'atning tarbiyaviy kuchi unda ifoda etilgan kechinma va obrazlarning har bir o'quvchi, tomoshabinning qalbiga kirib borishi, ularda estetik zavq uyg'onishidir.

Adabiyotlar

1. Кушаев.И.А, Ахтамов.И.И. Педагогические основы традиционной профессиональной музыки (на примере искусства дастана)// ACADEMY научно-методический журнал ноябр-2020 Ст.59-62.
2. Кушаев.И.А, Ахтамов.И.И. Проблемы индивидуальных музыкальных занятий в вузах Узбекистана// ACADEMY научно-методический журнал №3(66)2021.
3. Kushaev IA. Musical pedagogical fundamentals of doston art// ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 2020/10/10. 1061-1067.
4. IA Kushaev "Music pedagogical dollars of doston art" International Engineering Journal for Research & Development2020/12/10.
5. Ilkhom Akhtamovich Kushaev "Bakhshi art schools and their performing features" Scientific reports of Bukhara State University 2020//3/3 Стр.295-299.